

**ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARINI INKLIZIV  
TA'LIM SINFLARIDA TAHSIL OLISHLARI VA YUZAGA  
KELAYOTGAN KAMCHILIKLAR**

***Bannayeva Matluba Olimjon qizi***

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti*

*“Surdopedagogika va inklyuziv ta'lism” kafedrasi o'qituvchisi*

***Akbaraliyeva Saida Muhammad qizi***

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti*

*Surdopedagogika va inklyuziv ta'lism 303 -guruhan talabasi*

**Anatotsiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'lism sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Respublikamiz hududlarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qonunlar asosida Respublikamiz hududlarida bosqichma-bosqich tarzda ishlari olib borilmoqda. Biroq xalq ta'limi tizimida alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lism tizimini tashkil etish, ularning ta'lism olishga bo'lgan teng huquqlarini ta'minlash borasida ayrim bo'shliq va kamchiliklar ham mavjud. Ushbu maqolada bu to'g'risida to'liq bayon etilgan. Va yuzaga kelayotgan muammolarning qisqacha yechimi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lism, alohida yordamga muhtoj bolalar, qonunlar, qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasi, maxsus moslamalar, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati, maxsus kadrlar, zamonaviy maktablar.

**Анатотсиya:** Сегодня в нашей стране большое внимание уделяется инклюзивному образованию. В связи с этим в регионах нашей республики проводятся масштабные реформы. На основе этих законов поэтапно ведется работа в регионах нашей республики. Однако в системе народного образования имеются и некоторые пробелы и недостатки, связанные с организацией системы инклюзивного образования для обучения детей с особыми образовательными потребностями, обеспечения их равных прав на образование. Об этом подробно рассказано в этой статье. И вот краткое решение возникающих проблем.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, законы, постановления, новая Конституция Республики Узбекистан, специальное оборудование, специализированная школа и школа-интернат, специальные кадры, современные школы.

Hozir kunda mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'linda tahsil olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi "Ta'lism to'g'risida"gi yangi qonunini keltirishimiz mumkin. "Ta'lism to'g'risida"gi yangi qonuning 20-moddasi "Inklyuziv ta'lism" to'g'risida. Bunda: "Inklyuziv ta'lism alohida ta'lism ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lism oluvchilar uchun ta'lism tashkilotlarida ta'lism olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lism tashkilotlarida inklyuziv ta'lism tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lismni tashkil etish

tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi." deb ko'rsatilgan. Shu bilan birgalikda "Ta'lim to'g'risida" yangi qonunning 55-moddasi Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni (shaxslarni) o'qitish hamda tarbiyalash to'g'risida. Bunda: "Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va mакtabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi." deb belgilangan. Biroq hozirda mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida tahsil olishlarida bir qancha muammolar kuzatilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan "PQ-4860-son 13.10.2020. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni keltirishimiz mumkin. Qarorning 2-bobi "O'zbekistonda inklyuziv ta'limning joriy holati va mavjud muammolari"ni o'z ichiga olgan.

2014 — 2016-yillarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim" loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida:

- 1) respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi;
- 2) 150 nafardan ortiq tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1,3 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi;
- 3) pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etishga doir 3 ta o'qitish moduli kiritildi;
- 4) 2 ming nafardan ortiq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi;
- 5) Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida 5 ta tajriba-resurs markazi hamda 15 ta tajriba maktablari tashkil etilib, ularga 800 nafardan ortiq bolalar qamrab olindi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rinn olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, Xalq ta'limi tizimida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ularning ta'lim olishga bo'lgan teng huquqlarini ta'minlash borasida ayrim bo'shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan:

**A) inklyuziv ta’limni tashkil etish sohasida:**

1-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to’siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

2-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo’llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta’minlanmagan;

3-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida ota-onalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan farzandlarini umumta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma’lumotga ega emas;

4-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘sishma sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyatga tatbiq etilmagan;

5-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan yetarli e’tibor qaratilmayapti;

6-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonining murakkabligi va shaffof emasligi turli shakldagi korrupsiya holatlariga sabab bo‘lmoqda;

**B) kadrlarni tayyorlash sohasida:**

1-umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash talab etilmoqda;

2-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta’lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda qator muammolar yuzaga kelmoqda;

3-pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

4-pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta’lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek bo‘lajak pedagoglarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotganligi ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

5-umumta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta’lim haqida yetarli ma’lumotlarga ega emasligi inklyuziv ta’limni joriy etishning samarasizligiga olib kelmoqda;

6-malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limi bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan, ular faoliyatiga inklyuziv ta’lim bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmagan;

**C) o‘quv jarayonini tashkil etish sohasida:**

1-umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berish metodikasi ishlab chiqilmagan;

2-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmagan;

3-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari zarur maxsus o'quv adabiyotlari va metodik-qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan;

Biroq bugungi kunda ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirligi tomonidan ko'plab qonuniy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Yangi konstitutsiyasini keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda inklyuziv ta'lim to'g'risida ham bandlar kiritildi. Konstitutsianing 50-moddasida inklyuziv ta'lim to'g'risida so'z yuritilgan. Bunda "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi." deya ta'kidladi. Yuzaga kelayotgan muammolari yechish uchun har bir tashkilot o'ziga yuklatilgan vazifalarni vaqtida bajarishlari va bosqichma-bosqich tarzda ish olib borishlari lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi \(lex.uz\)](#)
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-sон
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.01.2024 yildagi 46-son Aloida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limda-bolalar-adabiyoti-pedagogik-instrument-sifatida/viewer>
5. Р. ШОМАХМУДОВА МАХСУС ВА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ХАЛКАРО ВА МИЛЛИЙ ТАЖРИБАЛАР Услубий кулланма
6. Р.М.Ро'ярова, Л.Ш.Nurmuxamedova, Д.Б.Yakubjonova, З.Н.Mamarajabova , Sh.M.Amirsaidova, А. Д.Sultonova MAXSUS PEDAGOGIKA O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta 'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT - 2014